



**CHDPU**  
CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI  
FAKULTETLARARO IJTIMOY FANLAR KAFEDRASI

# FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## MATERIALLARI



23-24-aprel, 2025



**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
TASHKILIY QO'MITASI**

**Tashkiliy qo'mita raisi:**

**G'.I. Muxamedov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

**Tashkiliy qo'mita a'zolari:**

**B.X. Eshchanov**

**S.B. Qorayev**

**D.B. Axmadjanov**

**O.A. Ortiqov**

**S.X. Gayupova**

**R.A. Ikramov**

**L.K. Axatov**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri.

**Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:**

**Madalimov T.A.**

**Jo'rayev H.A.**

**Koshanova N.M.**

**Tashmetov T.X.**

**Karshiyev Sh.S.**

**Neshitov P.Yu.**

**Xaytmetov R.K.**

**Muhammadiyev L.G.**

**Nafasov A.K.**

**Eronov S.Q.**

**Saidusmanov B.A.**

**Usmanov A.X.**

**Sunnatov T.R.**

**Tuganova L.Dj.**

**Toshtemirov R.A.**

**Ilmurodova f.Sh.**

**Yo'ldoshev U.X.**

**Abdullayeva D.N.**

**Sa'dullayeva M.X.**

**Xolmo'minov G.B.**

**Miraxmedova Sh.N.**

**Yakubov X.M.**

**Imomova U.I.**

**Tadjibayeva R.O.**

**Umarova Sh.B.**

**Yursinboyev J.M.**

**Nurmanov Sh.J.**

**Abdullayev T.S.**

**Maxkamov D.Sh.**

**Ilyosov Sh.B.**

**Burliyev U.K.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ESTETIK TARBIYANING TUTGAN O'RNI

**Quvvatov Sardor Isomiddinovich**

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

[sardorbekquvvatov1@gmail.com](mailto:sardorbekquvvatov1@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda estetik tarbiyaning tutgan o'rni xususida mulohaza yuritilgan. Estetik tarbiyaning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni, uni shakllantirish omillari falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o'zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** estetika, yoshlar, jamiyat, ma'naviyat, falsafa, estetik tarbiya, go'zallik, estetik madaniyat, globallashuv, estetik ong.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль эстетического воспитания в формировании духовности молодежи в условиях глобализации. Философски анализируется роль эстетического воспитания в воспитании подрастающего поколения и факторы его формирования. Особое внимание уделяется тому, что эстетическое воспитание имеет важное значение в воспитании отношений людей друг с другом в умственном, нравственном и физическом плане.

**Ключевые слова:** эстетика, молодежь, общество, духовность, философия, эстетическое воспитание, красота, эстетическая культура, глобализация, эстетическое сознание.

### Annotation

This article discusses the role of aesthetic education in the formation of youth spirituality in the context of globalization. The role of aesthetic education in the upbringing of the younger generation and the factors of its formation are analyzed philosophically. Particular attention is paid to the fact that aesthetic education is important in educating people's relationships with each other mentally, morally, and physically.

**Key words:** aesthetics, youth, society, spirituality, philosophy, aesthetic education, beauty, aesthetic culture, globalization, aesthetic consciousness.

Hozirgi globallashtirilgan zamonda ijtimoiy muammolarni insoniyat foydasiga hal etishda, dunyoning barcha davlatlarida tarbiyaga, xususan nafosat tarbiyasiga bo'lgan munosabatning o'zgarib borayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Voqelikdagi barcha narsa va hodisalarni nafosat qonuniyatlari asosida boyitish, sevinch va quvonch manbaiga aylantirish barcha xalqlarning orzu-umidi sanaladi. Ma'naviy madaniyat inson tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni, badiiy va san'at asarlarini, axloqiy va estetik qarashlarni o'z ichiga oladi. Shular asosida nafosat tarbiyasini takomillashtirish, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik va ma'naviy estetik ruhda tarbiyalash, ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biridir. Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni ko'rolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz. Bu borada "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.<sup>106</sup>

Globallashuv barcha sohalarda ma'naviy tarbiya bilan estetik madaniyatni uzviy ravishda ijtimoiy hayotimizni hayajonli, ehtirosli ko'rinishlarini aks ettirmoqda. Ayniqsa, milliy ma'naviyatni rivojlantirish, milliy til va estetik madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'ular, milliy g'urur va estetik tarbiyani ajoyib ko'rinishlarini bir-biri bilan uyg'un holda o'rganib borish maqsadga muvofiqdir.<sup>107</sup>

Barcha insonlarning ma'naviyati, madaniyati va dunyoqarashini istiqbol ruhida tarbiyalashda san'at va estetika sohasiga katta e'tibor qaratiladi. Kishilar nafosat tarbiyasi orqali yuksak ma'naviy go'zalliklardan bahramand bo'ladi. Bugungi kunda xalqimizning nafosat tarbiyasi xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati, badiiy adabiyot orqali ham olib boriladi. Yoshlar ongiga estetik ideallarni singdirish, ularning kundalik hayoti, moddiy va ma'naviy madaniyatini yuksak estetik tuyg'ular asosida kamol toptirish, har tomonlama yetuk malakali kadrlarni tarbiyalash jarayonida mehr-muhabbat, nafosat va nazokat, ezgu-niyatlar, estetik kechinmalar bilan tarbiyalash masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Estetik tarbiya kishilarda estetik his, estetik ong va estetik munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shaklidir.<sup>108</sup> Estetik tarbiyani mehnat tarbiyasining ajralmas bir qismi sifatida ham tushunish mumkin. Kishilarda estetik

<sup>106</sup> Мирзиев Ш, Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, Тошкент - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2017, 349-350- б

<sup>107</sup> G'aybullayev O. O'zbek oilasida shaxs estetik qadriyatlari rivojlanishining ijtimoiy asoslari. Tamaddunuri, ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal, 7-son, 2023-y, (46), 3-b

<sup>108</sup> Falsafa qomusiy lug'at, Toshkent,; 2004, 466-b

his-tuyg'u, estetik did, estetik ideal kabi estetik ong unsurlarining shakllanib borishi estetik tarbiyaning rivojlanishu uchun zamin yaratadi. Estetik tarbiya asosida hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok etish, kishilardagi estetik ehtiyojlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, har bir ota-ona, o'qituvchi, ustozning burchidir. Bolalarni yoshligidan boshlab tabiat va san'at go'zalligi olamiga olib kirish bilan birgalikda, kuy, musiqa ohangi, nafis gullar tarovati va chiroyi, san'at asarlari bilan tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Estetik tarbiyaning vazifasi obyektiv olam go'zalligi xilma-xil ko'rinishlarini ajratib yoshlar dunyoqarashini nafosat tuyg'ulari bilan boyitib borishdan iboratdir. Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o'zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Voqelikni mushohada etish, jamiyatdagi xilma-hil ehtiyojlarni qondirishda estetik tarbiya kishiga ruhiy quvvat bag'ishlaydi.<sup>109</sup> Estetik tarbiya jamiyat hayotida har doim o'zining rang-barang va xilma-xilligi bilan ijtimoiy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Inson voqelikdagi go'zallikni his etib, estetik faoliyati natijasida o'z mehnati bilan o'ziga zavq-shavq bag'ishlaydi. Estetik tarbiyaning jamiyatdagi roli insonlarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib voyaga yetkazishdir.

Estetik tarbiyaning o'ziga xos maqsadi - bu shaxning shu hildagi madaniyatini, ya'ni uning voqelikka estetik munosabatda bo'lishi va uni go'zallik, ulug'vorlik va boshqa mezoniy tushuncha tamoyillari bo'yicha baholay olish madaniyatini shakllantirishdir. Mazkur maqsadga esa shaxsning estetik ongi unsurlari - estetik ehtiyoj, did, ideal, qarashlarini maqsadli, doimiy yo'naltirilgan tarzda shakllantirish orqali erishiladi.

Estetik tarbiya bir qator vositalar - kishining maishiy muhiti, tabiat, mehnat, sport va b. orqli amalga oshiriladi. Lekin bular ichida san'at alohida mavqyega ega. Chunki u, birinchidan, o'z tabiatiga ko'ra estetik ong shakli va estetik faoliyat turidir. Ikkinchidan, u jamiyat ma'naviy hayotining barcha sohalarini o'zida mujassamlashtiruvchi dunyoni o'zlashtirish usuli hisoblanadi. Uchinchidan, san'at badiiy qadriyatlarni yuzaga keltiruvchi faoliyat sifatida estetik madaniyatning mag'zini tashkil etadi. Shuning uchun badiiy tarbiya, ya'ni san'at asarlaridan estetik zavqlanish, lazzatlanish ehtiyojini, ularni idrok etish - tushunish va baholay olish qobiliyatini shakllantirish hamda badiiy ijodga yo'naltirish estetik tarbiyaning faqat vositasi emas, balki ayni paytda tarkibiy qismi hamdir.

Estetik tarbiya asosida hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idrok etish, kishilardagi estetik ehtiyojlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, har bir ota-ona, o'qituvchi, ustozning burchidir. Bolalarni yoshligidan boshlab musiqa ohangi, nafis gullar tarovati va chiroyi, san'at asarlari bilan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

<sup>109</sup> G'aybullayev O., Estetika, Samarqand – 2004, 116-b

Estetik tarbiyaning vazifasi ob'ektiv olam go'zalligi xilma-xil ko'rinishlarini ajratib yoshlar dunyoqarashini nafosat tuyg'ulari bilan boyitib borishdan iboratdir. Maktab, litsey va kollejlarda o'quvchilarni o'quv-tarbiyaviy ishlar, adabiyot, musiqa, rasm darslari orqali estetik tarbiyalash muhimdir. Bunday tarbiyada jamiyat ma'naviy va moddiy hayotidagi uyg'unlik xususiyati namoyon bo'ladi.

Estetik tarbiya kishilarning bir-biriga o'zaro munosabatini aqliy, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Voqelikni mushohada etish, jamiyatdagi xilma-hil ehtiyojlarni qondirishda estetik tarbiya kishiga ruhiy quvvat bag'ishlaydi.

Inson doimo o'z turmushi shirin, hayoti ezgulik va go'zallikka boy manzaralar bilan o'tishini orzu qiladi. Shuning uchun kishilik jamiyati vujudga kelganidan boshlab nafosat olamining mohiyati, ma'no va mazmunini anglab yetishga intilib kelingan. Inson o'z amaliy faoliyati bilan voqelikni o'zlashtirib, uni o'zgartirishga harakat qiladi. Voqelikdagi go'zallik va xunuklik, kulgulilik va fojaviylikni bir-biridan farqlab, dunyoning asl mohiyati qandayligini anglaydi. Bular barchasi kishining yashashi uchun zarur bo'lgan talab va ehtiyojlar asosida amalga oshadi.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan doimo aloqada bo'lib keladi. Badiiy tarbiya ijod jarayonidagi rang-barangliklar olamini inson tomonidan estetik tarzda anglash va o'zlashtirishning bir qismidir. Estetik tarbiya esa, jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u insonning didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir<sup>110</sup>. Estetik tarbiyani olib borishda, estetik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda, o'tmish madaniyatimiz va milliy estetik tarbiyamizni bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining estetik tarbiyasi milliy qadriyatlarimiz va undagi insoniylik tamoyillari bilan bog'langan. Bolalarni estetik tarbiyalash, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy yuksalishida katta rol o'ynaydi. Hattoki, maktablardagi va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'zining milliyligi jihatidan butun jahon xalqlari diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Insonning estetik tarbiyasi uning madaniyati va ma'naviyatida namoyon bo'lar ekan, u doimo shular asosida go'zallikni his qilish, nafosat olami chiroyidan bahramand bo'lish, yaxshi fazilat va xislatlarga ega bo'lish kabi tuyg'ularni o'zida mujassam etmog'i lozim. Shu boisdan insonning estetik tarbiyasi mukammal va serjilo ko'rinishga ega bo'lishi uning ma'naviy-madaniy jihatlari bevosita bog'liqdir. Bular orqali inson faqatgina go'zallikni his etib qolmasdan, balki o'zida

<sup>110</sup> Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov, Estetika, Toshkent – 2008, 159-b.

yuksak hissiyot, odat, ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy madaniyat va ma'naviyat o'z davrining mafkurasi hamda davr talab-ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Chunki har qanday estetik tarbiyada madaniyat va ma'naviyatning hamohangligi, birligi va mutanosibligi bo'lishi lozim

Mulohazalarimiz intihosida shuni aytish mumkinki, estetik tarbiya yoshlarda ma'naviy yetuklikni shakllantirishdagi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi va turmush go'zalligini, nafosatini ko'rsatib beradi. Xalqimizning ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelayotgan estetik tarbiyasi bugungi kunda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol va go'zal qilib tarbiyalash jarayonida muhim muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda o'zbek oilasida tarbiyalanayotgan har bir inson avvalo o'tmish merosimiz va qadriyatlarimizdan estetik zavq-shavq olib kamol topishi, boshqa tomondan jahon xalqlarining estetik tarbiyasidan to'la bahramand bo'lgan holda ulg'ayishi muhimdir. Yuksak estetik tafakkurga ega bo'lgan barkamol insonni tarbiyalash kelajagi porloq bo'lgan Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim jihati hisoblanadi. Bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifa esa har tomonlama yetuk, mukammal shaxsni tarbiyalash, jamiyatimiz uchun fidoyi va jonkuyar inson qilib voyaga yetkazishdir.

## REFERENCES

1. Мирзиеев Ш, Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, Тошкент - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2017, 349-350- б
2. G'aybullayev O. O'zbek oilasida shaxs estetik qadriyatlari rivojlanishining ijtimoiy asoslari. Tamaddunuri, ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal, 7-son, 2023-y, (46), 3-b
3. Falsafa qomusiy lug'at, Toshkent,; 2004, 466-b
4. G'aybullayev O., Estetika, Samarqand – 2004, 116-b
5. Abdulla Sher, Bahodir Usmonov, Erkin Umarov, Estetika, Toshkent – 2008, 159-b.

|                                                                                                                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 40. Quvvatov, S. I. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ESTETIK TARBIYANING TUTGAN O'RNI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250339">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250339</a>                  | 248 |
| 41. Abdullayev, S. K. S. HOKINGNING REGULAR QORA TUYNUKLAR VA KVAZI DAVRIY TEBRANISHLAR NAZARIYASI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250341">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250341</a>                                   | 253 |
| 42. Salomo, S. INFORMATSION MANIPULYATSIYANING IJTIMOIIY-SIYOSIIY XARAКTERI VA UNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250345">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250345</a>                 | 257 |
| 43. Toshtemirova, S. THE SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE AVESTA IN THE MODERN EDUCATIONAL SYSTEM , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250349">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250349</a>                          | 263 |
| 44. Tangirberdiyev, S. G. FAXRUDDIN ALI AS-SAFIYNING HAYOT YO'LI VA IJODIIY FAOLIIYATI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250352">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250352</a>                                               | 271 |
| 45. Xojiyev, T. N. "QUVIB YETUVCHI MODERNIZATSIYA" NAZARIYALARINING INQIROZI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250354">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250354</a>                                                         | 278 |
| 46. Murodova, F. J. TURKIIY TILLAR HARBIY LEKSIKASIDA SINONIMLAR (O'zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi misolida) , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250356">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250356</a>                  | 287 |
| 47. Tursunov, A. K. MAISHIIY KORRUPSIYA KO'RSATKICHLARI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250358">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250358</a>                                                                              | 294 |
| 48. Xaitov, B. T. HADISLARDA YOSHLAR TARBIYASI MASALASI (Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" asari misolida) , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250360">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250360</a>                        | 298 |
| 49. Tashmetov, T. TARIXIIY TARAQQIIYOT VA UNING G'OYAVIIY-MAFKURAVIIY MEZONLARINI O'RGANISH DAVR TAQOZOSI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250362">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250362</a>                            | 304 |
| 50. Ismayilov, A. Z. HUQUQIIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIIY ONGNING O'RNI: KORRELYATSIONFUNKSIONAL TAHLIL , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250364">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250364</a> | 310 |
| 51. Адиллов, Б. ТАСАВВУФ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА НАЖМИДДИН КОМИЛОВНИНГ ҚИЁСИЙ МЕТОДИ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250366">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250366</a>                                                      | 316 |
| 52. Файзиходжаева, Д. И. ИНТЕГРАЛ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА БИЛИМ ВА ЭЪТИҚОД УЙЎУНЛИГИ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250368">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250368</a>                                              | 324 |
| 53. Холмуминов, . д . м . НАУЧНЫЕ ДЕБАТЫ МЕЖДУ ФИЛОСОФИЕЙ И СУФИЗМОМ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250375">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250375</a>                                                                 | 330 |
| 54. Илмуродова, Ф. Ш. ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250377">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250377</a>                                                                          | 344 |
| 55. Мавлянов, А. А. МАНТИҚ ФАНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ТЕНДЕНЦИЈЛАРИ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250379">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250379</a>                                               | 350 |
| 56. Joldasova U.T BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIIY IMKONIIYATLARINI OSHIRISH USULLARI                                                                                                                                     | 356 |
| 57. Межевникова, О. П. ВИРТУАЛИЗАЦИЯ РЕЛИГИИ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250387">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250387</a>                                                                                         | 360 |
| 58. Жузжасарова, А. А. МИР ИСЛАМСКОЙ КУЛЬТУРЫ , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250389">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250389</a>                                                                                        | 365 |
| 59. Saitxodjaev, X. B. HUQUQIIY IJTIMOILASHUV SHAXS HUQUQIIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI , <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15250391">https://doi.org/10.5281/zenodo.15250391</a>                               | 372 |